


TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)


2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2649,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 133,0%ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 1074,4 mln. AQSH dollarga (151,3%ga oshgan) va import hajmi 1574,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 122,8%) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 500,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan,%)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning iyul oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 1,7 mln. AQSH dollarga kamroq eksport qilindi va 133,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 265,9 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa iyun oyiga nisbatan 40,7 mln. AQSH dollariga ko'proqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarga to'g'ri keldi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega 10 ta davlatlarning ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda. Qolgan 10 ta davlatlarning esa o'rnini almashib turibti xolos.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**


(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Qozog`iston	528,7	115,8	412,9	20,0
Rossiya	463,9	138,6	325,3	17,5
Xitoy	450,2	175,1	275,1	17,0
Turkiya	447,7	381,4	66,3	16,9
Koreya Respublikasi	109,8	6,7	103,1	4,1
BAA	53,2	52,8	0,4	2,0
Germaniya	50,3	1,0	49,3	1,9
Tojikiston	44,6	14,1	30,5	1,7
Belarusiya	39,1	8,4	30,7	1,5
Qirg`iston	37,2	25,2	12,0	1,4
Ukraina	36,8	24,7	12,1	1,4
Afg`oniston	36,3	35,9	0,4	1,4
Litva	35,6	0,2	35,4	1,3
Braziliya	34,1	0,0	34,1	1,3
Italiya	33,0	1,9	31,1	1,2
Angliya	26,7	25,2	1,5	1,0
Eron	20,1	8,5	11,6	0,8
Latviya	17,2	1,0	16,2	0,6
Niderlandiya	15,6	9,9	5,7	0,6
Hindiston	14,8	1,2	13,6	0,6

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,9 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43,8 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-iyul oylarida 59,4 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 56,1 %ga yoki 3,3 % punktga kamaydi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)




EKSPORT




2019 yil yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 1074,4 mln. AQSH dollarga (151,3 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,3 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (60,9 %), boshqa turdagi tovarlar (15,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,7 %), paxta tolasi (10,2 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,6%) shuningdek, mashina va uskunarlar (2,6 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018 yil
yanvar-iyul



2019 yil
yanvar-iyul




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	1074,4	151,3	100,0	335,9	169,2	100,0	738,5	144,3	100,0
Paxta tolasi	109,4	3,2m	10,2	0,2	14,0	0,0	109,2	3,3m	14,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	93,6	118,9	8,7	71,0	144,5	21,1	22,6	76,5	3,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	17,3	75,2	1,6	11,9	106,1	3,5	5,5	46,0	0,7
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,00	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	653,9	147,9	60,9	128,7	2,3m	38,3	525,2	136,3	71,1
Mashina va asbob - uskunalar	28,1	2,6m	2,6	12,5	3,6m	3,7	15,5	2,1m	2,1
Xizmatlar	7,5	109,2	0,7	1,7	2,2m	0,5	5,8	94,7	0,8
Boshqalar	164,6	143,6	15,3	109,9	144,4	32,7	54,7	142,0	7,4

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, paxta tolasiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyul oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 1,3 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 7,5 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7%ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,2%ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning iyul oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, iyun oyiga nisbatan 1,7 mln. AQSH dollariga kam eksport qilindi va 133,8 mln. AQSH dollarini, shuningdek, xizmatlar eksporti esa 1,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar-iyul, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 51,8 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-iyul oylarida jami 71,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 70,4 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 39,3%ga oshgan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida 54,6 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 35,7mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,1 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 13,5 ming tonna meva va rezavorlar 25,5 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 ming tonnaga kamroqdir.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-iyul 2019 y.)






Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 61,2 mln. AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,3 %ga oshgan).

IMPORT

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 1574,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 122,8%) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (32,0%), oziq-ovqat mahsulotlari (16,2%), qora va rangli metallar (15,2%) hamda boshqa tovarlar (26,4%) guruhlariga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	1574,7	122,8	100,0	828,2	135,6	100,0	746,6	111,2	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	254,7	2,8m	16,2	155,4	2,5m	18,8	99,3	3,6m	13,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	125,8	158,2	8,0	39,9	2,2m	4,8	85,8	139,4	11,5
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	18,2	105,1	1,2	17,1	105,8	2,1	1,1	95,5	0,2
Qora va rangli metallar	239,0	97,0	15,2	195,6	104,0	23,6	43,4	74,5	5,8
Mashina va asbob-uskunalar	503,9	87,2	32,0	78,4	38,9	9,5	425,6	112,9	57,0
Xizmatlar	17,9	17,4	1,1	4,5	139,3	0,5	13,5	13,5	1,8
Boshqalar	415,2	2,5m	26,4	337,3	2,8m	40,7	77,9	169,1	10,4

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyul oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.


Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyul oyida import qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 18,1 %ga ko'paygan.


Xizmatlar importi hajmi 17,9 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,1 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,6%ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar iyul oyida iyun oyiga nisbatan 40,7 mln. AQSH dollariga ko'p import qilindi va 1574,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar-iyul, %)



Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning eksport-importi
(2019 yil yanvar- iyul holatiga)

	Eksport-import qilgan korxonalar soni	mln. AQSH doll.	O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida
Eksport	106	136,2	104,8
Import	339	437,6	157,3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatga 90 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlarining jami import hajmi 1232,0 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 78,2 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:71-230-86-59**